



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 4-SON



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbak22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Olimova Sevara

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONIDAGI AN‘ANAVIY JAMIYAT MAROSIMLARINING TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLILI6-10

Yuldasheva Shahlo

XVI – XIX ASRLAR XIVA XONLIGI ETNO- SIYOSIY TARIXI MUOMMOLARI (ETNOLOGIK TADQIQOTLAR ASOSIDA) 11-15

Abdullayeva Shoxnoza

“XORAZM MUSIQIY TARIXCHASI” ASARI – MARKAZIY OSIYO MUSIQIY SAN‘ATINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 16-22

Djabbarova Sevara

XORAZMDA ZIYORATGOH MADANIYATI: ISLOMIY VA MAHALLIY UNSURLAR UYG‘UNLIGI 23-26

Jumabekova Zarafshan

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA QAL‘AJIQ QAL‘A YODGORLIGINI QAYTA TIKLASH VA REKONSTRUKSIYA QILISH 27-31

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL 32-41

YURIDIK FANLAR

Zokirov Shoxruxbek

QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING SHAKLLARI VA ULARNING NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR SIFATIGA TA‘SIRI 42-48

YURIDIK FANLAR – LEGAL SCIENCES*Article / Original Paper***QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING SHAKLLARI VA ULARNING
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR SIFATIGA TA’SIRI****Zokirov Shoxruxbek Zohidjon o’g’li**

Sarbon Universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasida o’qituvchisi

Email: shohruxzokirov2320@gmail.com

Tel: +998954449981

ORCID ID: 0000-0001-9025-6285

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonunchilikni tizimlashtirish tushunchasi, uning asosiy shakllari — inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu shakllarning normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga ta’siri, xususan, huquqiy aniqlik, tizimlilik, izchillik va amaliy qo’llash samaradorligini oshirishdagi o’rni ko’rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda qonunchilikni tizimlashtirishning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari yoritiladi.

Kalit so’zlar: qonunchilikni tizimlashtirish, inkorporatsiya, kodifikatsiya, konsolidatsiya, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy tizim, huquqiy aniqlik, samaradorlik.

**FORMS OF SYSTEMATIZATION OF LEGISLATION AND THEIR IMPACT ON THE
QUALITY OF NORMATIVE LEGAL ACTS****Zokirov Shoxruxbek Zohidjon o’g’li**

Lecturer of the Department of Legal Sciences

Sarbon University

Annotation. This article examines the concept of systematization of legislation and its main forms—incorporation, consolidation, and codification—from a theoretical and scientific perspective. It analyzes the impact of these forms on the quality of normative legal acts, particularly in terms of legal clarity, consistency, coherence, and effectiveness of application. The paper also highlights current challenges in the systematization of legislation and proposes possible ways to address them in modern legal practice.

Keywords: systematization of legislation, incorporation, codification, consolidation, normative legal acts, legal system, legal clarity, effectiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i4v2y2026/n07>**Kirish.**

Zamonaviy huquqiy davlat qurilishida qonunchilikning izchil va tizimli bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning ko’pligi, ularning o’zaro bog’liqligi va ba’zan zidligi qonunchilikni tizimlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli tizimlashtirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Qonunchilikni tizimlashtirish huquqiy normalarni tartibga solish, ularni yagona va aniq tizimga keltirish orqali huquqni qo’llash jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ayniqsa, turli davrlarda qabul qilingan hujjatlar o’rtasidagi tafovutlar, takrorlanishlar yoki qarama-qarshiliklar amaliyotda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan,

tizimlashtirish orqali huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, ortiqcha normalarni qisqartirish va mavjud huquqiy bazani optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, tizimlashtirish huquqiy aniqlik va oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikning tushunarli va izchil bo'lishi ularning huquq va majburiyatlarini to'g'ri anglashiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida huquqiy madaniyatning oshishiga, qonunlarga hurmatning mustahkamlanishiga olib keladi.

Qonunchilikni tizimlashtirishning asosiy shakllariga inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya kiradi. Ushbu jarayonlar orqali normativ-huquqiy hujjatlar muayyan tartibda joylashtiriladi, yangilanadi va takomillashtiriladi. Ayniqsa, kodifikatsiya jarayoni huquq sohasini tubdan qayta ko'rib chiqish va yagona kodekslar shaklida mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi qonunchilikni tizimlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Elektron huquqiy ma'lumotlar bazalari, onlayn platformalar va raqamli tizimlar orqali huquqiy hujjatlarga tezkor kirish, ularni izlash va tahlil qilish osonlashmoqda.

Mavzuni dolzarbligini tahlil qilsak, huquqshunos professor M.Axmadshayeva fikricha: "Milliy yuridik fan doirasida qonunchilikni tizimlashtirish masalalari hamda uning turlari, jumladan inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya yetarli darajada o'rganilmagan, ushbu masala bo'yicha nazariy ishlanmalar ham yetarli emas. Shu munosabat bilan qonunchilikni tizimlashtirish, kodifikatsiya, konsolidatsiya va inkorporatsiya bo'yicha tadqiqotlarni kuchaytirish va kengaytirish zarur" [1] – deb hisoblaydi. Birgina ushbu fikrning o'zi ham bugungi kunda qonunchilikni tizimlashtirishga doir masalalarni tadqiq qilish nechog'lik ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Qonunchilikni tizimlashtirish zamonaviy huquqiy davlatni shakllantirishning ajralmas qismi bo'lib, u huquqiy tizimning samaradorligini oshirish, huquqni qo'llash amaliyotini soddalashtirish hamda jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qonunchilikni tizimlashtirish – bu normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish, ularni yagona, o'zaro uyg'un tizimga keltirish hamda takomillashtirish jarayonidir¹. Ushbu jarayon huquqiy normalarni izchil joylashtirish, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash va huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilikni tizimlashtirish bir necha asosiy turlarda amalga oshiriladi:

Inkorporatsiya – normativ-huquqiy hujjatlarni ularning mazmuniga o'zgartirish kiritmasdan, muayyan tartib asosida jamlash va tizimlashtirishdan iborat. Bu usulda hujjatlar asosan xronologik yoki mavzuli tartibda to'planadi.

Qonunlarni inkorporatsiya qilish orqali tizimlashtirish deyarli barcha davlatlarda amalga oshiriladi. Ular ko'p jildli holda nashr etilib, qonunlarning chiqarilgan vaqtiga qarab (xronologik), alifbo tartibida va boshqa sifat hamda belgilariga qarab joylashtiriladi [2].

Avvalo, inkorporatsiya jarayonida normativ-huquqiy hujjat faqat tashqi jihatdan o'zgartiriladi, ichki mazmuni esa o'zgarmaydi. Ya'ni, kodifikatsiya jarayonida normativ-huquqiy hujjatlardagi normalar ham o'zgartiriladi, mavjud qarama-qarshiliklar yoki bo'shliqlar bartaraf etiladi — inkorporatsiyadan farqli ravishda [3].

Inkorporatsiya — bu normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunini o'zgartirmasdan to'plam shaklida birlashtirish jarayoni [4]. Demak, inkorporatsiya normativ-huquqiy hujjatlarni

ularning mazmuniga o'zgartirish kiritmasdan, faqat tashqi jihatdan tartibga solib, to'plam shaklida birlashtirish jarayonidir. Bu jarayonda hujjatlarning ichki huquqiy mazmuni saqlanib qoladi, faqat ularni tizimli joylashtirish (xronologik yoki mavzuli) amalga oshiriladi. Natijada huquqiy axborotdan foydalanish qulaylashadi, biroq normativ ziddiyatlar yoki bo'shliqlar bartaraf etilmaydi. Shu sababli inkorporatsiya tizimlashtirishning eng sodda va texnik xarakterdagi shakli hisoblanadi.

Inkorporatsiya qonunchilikni tizimlashtirishda eng kam o'zgartirish kiritadigan shakldir [5]. Haqiqatdan ham inkorporatsiya qonunchilikni tizimlashtirishning eng sodda shakli bo'lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar mazmuniga deyarli o'zgartirish kiritilmaydi. Faqat ularni tartibga solish va to'plam holda birlashtirish amalga oshiriladi. Shu sababli u huquqiy normalarning ichki mazmunini saqlagan holda, asosan tashkiliy jihatdan tizimlashtirish vazifasini bajaradi.

Konsolidatsiya — bu jamiyatning bir umumiy sohadagi munosabatlarini tartibga soluvchi bir nechta hujjatlarni tizimlashtirish va konsolidatsiyalangan umumiy normativ-huquqiy hujjatga birlashtirish shaklidir. Konsolidatsiyadan so'ng barcha qoidalar o'z mazmunini saqlab qoladi [6].

Konsolidatsiya ko'plab sohalarda qo'llanuvchi tushuncha bo'lganligi sababli uni avallam bor farqlab olish zarur. Bu borada boshqa olimlarning tadqiqotlariga yuzlansak umumiy bir-biriga yaqin tahlillarga duch kelamiz.

Konsolidatsiya — Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasiga ko'ra "konsolidatsiya" birlashtirish jarayonini, ijtimoiy hamjamiyatning jipslashishini, shaxslarning o'zaro ta'sirini kuchaytirishni, jamiyatni tashkil etuvchi guruhlarining birlashtirishini bildirish uchun ishlatiladigan tushunchadir [7].

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi "konsolidatsiya" (lotincha con — birga, solido — mustahkamlash) — biror narsani (shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, harakatlar) mustahkamlash, birlashtirish degan ma'noni anglatadi [8].

"Konsolidatsiya" barcha sohalarda keng ishlatiladigan tushuncha bo'lib, jumladan, iqtisodiyotda – o'sish yoki pasayishdan keyin birja kursini barqarorlashtirish ma'nosida, tibbiyotda – bu sinishni davolash jarayoni (suyak kallasining shakllanishi), huquqda esa – normativ hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi sifatida foydalaniladi [9].

Huquqda esa bir xil yoki o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarni yagona hujjatga birlashtirish jarayonidir. Bunda hujjatlar mazmuni sezilarli darajada o'zgartirilmaydi, lekin ularning shakli va tuzilmasi soddalashtiriladi.

Konsolidatsiya muayyan o'ziga xos jihatlariga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli ravishda birlashtirish orqali yangi huquqiy hujjat yaratish usulidir. U kodifikatsiyadan shunisi bilan farq qiladiki, konsolidatsiya jarayonida huquqiy tartibga solish mazmuni o'zgartarmaydi, ya'ni mavjud normalarning mohiyati va mazmuniga ta'sir ko'rsatilmaydi.

Konsolidatsiya amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar sonini kamaytirish, ularning qo'llanilishi qulayligini oshirish, keraksiz takrorlanish va nomuvofiqlikni bartaraf etish hamda terminologiyaning bir xilligiga erishish uchun amalga oshiriladi. Qonun hujjatlari to'plamini ko'plab kichikroq hujjatlarga bo'lish huquqiy normalarning keraksiz takrorlanishiga, huquqiy tartibga solishdagi nomuvofiqlikning kuchayishiga va bir vaqtning o'zida bir nechta hujjatlar bilan ishlashning noqulayligiga olib keladi. Aksincha, ma'lum bir mavzuga tegishli huquqiy

normalarni bitta hujjatga birlashtirish e'tiborni bir hujjatdan boshqasiga o'tkazish zaruratini yo'q qiladi va qonunchilikdagi nomuvofiqliklar sonini kamaytirishga yordam beradi [10].

Shuningdek, konsolidatsiya inkorporatsiyadan ham ajralib turadi: inkorporatsiyada hujjatlar oddiy jamlanma ko'rinishida birlashtirilsa, konsolidatsiyada esa faqat qonun chiqaruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi va ular tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosida yangi yagona normativ hujjat yaratiladi.

Bundan tashqari, inkorporatsiya jarayonida hujjatlar o'z kuchini saqlab qolgan holda to'plam shaklida birlashtiriladi, konsolidatsiyada esa yangi hujjat qabul qilinib, u yagona tartibga soluvchi manba sifatida amal qiladi.

Shu sababli, konsolidatsiya huquqiy hujjatlarni birlashtirish usullari orasida o'rta pozitsiyani egallaydi.

Konsolidatsiya huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llash jarayonlari o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, ularning faoliyatini yagona qadriyatlar asosida uyg'unlashtirish orqali huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshiradi.

Agar ushbu ikki yo'nalish o'zaro muvofiqlashtirilmagan holda faoliyat yuritsa, huquq normalarining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga tizimli ta'sir ko'rsatishi murakkablashadi [11]. Shu sababli, konsolidatsiya huquqiy tizimning muhim elementi sifatida huquq ijodkorligi va huquqni qo'llashning uyg'un hamkorligini ta'minlab, jamiyatda tartib va barqarorlikni yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, konsolidatsiya — mazmuni o'zgarmagan holda, odatda bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni yagona nom ostida birlashtirish usuli bo'lib, bugungi kunda huquq ijodkorligi amaliyotida kamdan-kam qo'llanadi [12].

Kodifikatsiya – qonunchilikni tizimlashtirishning eng murakkab va samarali shakli bo'lib, unda huquq normalari tubdan qayta ishlanadi, eskirgan qoidalar chiqarib tashlanadi va yagona, mukammal tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat (odatda kodeks) yaratiladi. Kodifikatsiya eng samarali kontinental huquq tizimida (romano-german) ishlaydi. Anglo-sakson huquq tizimida esa kamroq qo'llanadi.

Kodifikatsiya bu faqat tizimlashtirish emas, balki huquqni chuqur qayta ishlab chiqishdir [13].

Shu jihatdan, tizimlashtirishning har bir turi huquqiy tizimni tartibga solishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda qonunchilikning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilikni tizimli va tartibli qiladi, huquqni qo'llashni osonlashtiradi va yagona kodekslar orqali huquqiy aniqlikni oshiradi [14]. Shuningdek, huquqni yagona tizimga soladi, sud amaliyotini soddalashtiradi, huquqni qo'llashda bir xillikni ta'minlaydi [15].

Kodifikatsiya qonunchilikni tizimlashtirishning eng yuqori darajadagi va murakkab shakli bo'lib, unda huquqiy normalar tubdan qayta ko'rib chiqiladi, eskirgan va amalda samarasiz qoidalar bekor qilinadi hamda yagona, izchil va mukammal normativ-huquqiy hujjat (kodeks) yaratiladi. U, ayniqsa, roman-german huquq tizimida eng samarali qo'llanilsa, anglo-sakson huquq tizimida nisbatan kamroq uchraydi.

Kodifikatsiya shakli orqali huquqiy aniqlik oshadi, normativ hujjatlar o'zaro moslashadi va qonunchilik sifatini tubdan yaxshilaydi [16].

Kodifikatsiya faqat oddiy tartibga solish emas, balki huquqni chuqur sifat jihatdan qayta ishlash jarayonidir. Shu bois u huquqiy tizimni tubdan takomillashtirib, normativ materialni yagona mantiqiy tizimga keltiradi.

Umuman olganda, qonunchilikni tizimlashtirishning barcha shakllari huquqiy tizimni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Ular huquqni tizimli va tartibli qiladi, huquqni qo‘llashni yengillashtiradi hamda yagona kodekslar orqali huquqiy aniqlikni oshiradi. Shuningdek, huquqni yagona tizimga solish, sud amaliyotini soddalashtirish va huquqni qo‘llashda bir xillikni ta‘minlash orqali huquqiy tizimning barqarorligi va samaradorligini kuchaytiradi.

Keltirilgan fikrlar qonunchilikni tizimlashtirish, ayniqsa kodifikatsiyaning huquqiy tizimga ta‘sirini ifodalaydi. Ular huquqni tartibli va tizimli qilish orqali normativ-huquqiy hujjatlarning izchilligini oshiradi hamda yagona kodekslar asosida huquqiy aniqlikni kuchaytiradi. Bu esa huquqni qo‘llash jarayonini soddalashtirib, sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantiradi.

Shuningdek, tizimlashtirish huquqni yagona tizimga soladi, normativ hujjatlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytiradi va huquqni qo‘llashda bir xillikni ta‘minlaydi. Natijada huquqiy tizim barqarorligi va amaliy samaradorligi oshadi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch shakl o‘zaro bosqichma-bosqich rivojlanish zanjirini tashkil etadi: inkorporatsiya huquqiy axborotni tartibga solsa, konsolidatsiya uni soddalashtiradi, kodifikatsiya esa huquqni chuqur qayta ishlab, mukammal tizim yaratadi. Natijada qonunchilikning izchilligi, huquqiy aniqligi va amaliy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Muhokama.

Qonunchilikni tizimlashtirish shakllari — inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya — zamonaviy huquqiy tizimning barqaror ishlashini ta‘minlovchi asosiy mexanizmlar sifatida ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu shakllar normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga bevosita va sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Birinchiidan, **inkorporatsiya** eng sodda tizimlashtirish shakli sifatida hujjatlarning tashqi tartibini yaxshilaydi, ammo ularning ichki mazmuniga ta‘sir qilmaydi. Ilmiy manbalarda inkorporatsiya huquqiy axborotni tizimlashtirishning boshlang‘ich bosqichi sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inkorporatsiya hujjatlar o‘rtasidagi tarqoqlikni kamaytiradi, biroq normativ kolliziyalarni bartaraf etishda yetarli samaradorlikka ega emas. Shu sababli uning hujjat sifati oshirishdagi ta‘siri cheklangan xarakterga ega.

Ikkinchidan, **konsolidatsiya** normativ hujjatlarni qisman tahrir qilish orqali ularni yagona tizimga keltiradi. Tadqiqotlarda bu shakl oraliq bosqich sifatida baholanib, u inkorporatsiyaga nisbatan yuqoriroq darajadagi tizimlilikni ta‘minlashi qayd etiladi. Konsolidatsiya normativ hujjatlar o‘rtasidagi takrorlanishni kamaytiradi va huquqni qo‘llash jarayonini yengillashtiradi. Biroq u ham to‘liq kodifikatsiya darajasiga yetmaydi.

Uchinchiidan, **kodifikatsiya** eng murakkab va samarali shakl sifatida ajralib turadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kodifikatsiya jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat tizimlashtiriladi, balki ichki mazmunan qayta ishlanadi, eskirgan normalar chiqarib tashlanadi va yangi huquqiy konstruksiyalar yaratiladi. Bu esa huquqiy tizimning izchilligi, barqarorligi va mantiqiy yaxlitligini ta‘minlaydi.

Har bir bosqich normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ma‘lum darajada oshiradi, biroq eng yuqori sifat ko‘rsatkichiga aynan kodifikatsiya orqali erishiladi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar raqamli huquqiy tizimlar rivojlanishi bilan tizimlashtirishning yangi shakllari shakllanayotganini ko‘rsatadi. Elektron bazalar va

avtomatlashtirilgan huquqiy axborot tizimlari inkorporatsiya va konsolidatsiya jarayonlarini tezlashtirsa-da, ular kodifikatsiyaning o'rnini bosa olmaydi.

Natijalar.

Mazkur tadqiqot davomida qonunchilikni tizimlashtirishning asosiy shakllari — inkorporatsiya, konsolidatsiya va kodifikatsiya — har tomonlama tahlil qilinib, ularning normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga ta'siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar quyidagilardan iborat:

Birinchi, qonunchilikni tizimlashtirish huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita ekanligi asoslab berildi. Tizimlashtirish orqali normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlar kamayadi, takroriy normalar bartaraf etiladi hamda huquqiy bo'shliqlar qisqaradi.

Ikkinchi, inkorporatsiya shaklining normativ-huquqiy hujjatlar mazmuniga bevosita o'zgartirish kiritmasdan, ularni tartibga solish va tizimlashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu shakl hujjatlarning qulay foydalanilishini ta'minlaydi, biroq ularning sifatini tubdan yaxshilash imkoniyatlari cheklanganligi isbotlandi.

Uchinchi, konsolidatsiya jarayoni bir xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarni yagona hujjatga birlashtirish orqali ularning tizimlilikini oshirishi qayd etildi. Natijada huquqni qo'llash amaliyotida qulayliklar yaratiladi, biroq mazkur shakl ham mazmuniy yangilanishni to'liq ta'minlay olmaydi.

To'rtinchi, kodifikatsiya qonunchilikni tizimlashtirishning eng mukammal shakli sifatida baholanib, u normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini sezilarli darajada oshirishi asoslab berildi. Kodifikatsiya jarayonida huquq normalari qayta ishlab chiqiladi, eskirgan normalar chiqarib tashlanadi va yangi, yaxlit huquqiy tizim yaratiladi.

Beshinchi, tizimlashtirish shakllarining normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga ta'siri ularning aniqligi, izchilligi, barqarorligi va amaliy qo'llanish darajasini oshirishda namoyon bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, kodifikatsiya orqali hujjatlarning tushunarli va huquqiy aniqligi yuqori darajaga ko'tarilishi ta'kidlandi.

Oltinchi, O'zbekiston sharoitida qonunchilikni tizimlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Xususan, raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy etish, yagona elektron huquqiy bazalarni rivojlantirish hamda tizimlashtirish ishlarini uzluksiz olib borish normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etildi.

Yettinchi, tizimlashtirish jarayonlarining samaradorligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga, balki huquqni qo'llash amaliyoti, sud faoliyati va fuqarolarning huquqiy ongiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa.

Qonunchilikni tizimlashtirish shakllari normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirishning fundamental omillaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida shuni xulosa qilish mumkin, inkorporatsiya hujjatlarning tashqi tartibini ta'minlash bilan cheklansa, konsolidatsiya ularni qisman takomillashtiradi, kodifikatsiya esa huquqiy normalarni chuqur qayta ishlab, yagona, izchil va barqaror huquqiy tizimni shakllantiradi.

Shu sababli, normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirishda eng samarali vosita sifatida kodifikatsiya alohida ahamiyatga ega bo'lib, u huquqiy aniqlikni ta'minlash, kolliziyalarni bartaraf etish va huquqni qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tizimlashtirish shakllari huquqiy tizimni rivojlantirishning uzluksiz jarayoni bo'lib, ularning kompleks qo'llanilishi davlat huquqiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Mavluda Axatovna Axmedshayeva, "Qonunchilikni kodifikatsiyalash jarayoni: ayrim nazariy masalalar," *Yurisprudensiya*, no. 4 (2022), 15-26-betlar.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.
3. Zheldybina T. A., Problems of Codification of Law in the Teachings of G. F. Shershenevich, *Jurisprudence*, 2007, No. 4, pp. 154–160.
4. Choriyev U.R. The role and significance of incorporation in the process of systematizing legislation. (2025). *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 3(7), 4-7.
5. Kocharyan, Sergey. "Forms of Systematization of Legal Acts". *Bulletin of Yerevan University C: Jurisprudence*, vol. 16, no. 2(43), Dec. 2025, pp. 6-17, <https://doi.org/10.46991/BYSU.C/2025.16.2.006> .
6. Gloria Harrison. Konsolidatsiya Nima?. <https://uz.scienceforming.com/10910886-what-is-consolidation>
7. Alcock P., May M. and Wright Sh. "Social Policy". 2012. John Wiley & Sons Ltd. –P. 5-6.
8. Xayrullayev Sirojiddin Axmadullo o'g'li. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omili. Dissertatsiya avtorefrati. Namangan-2025.
9. Губский Е.Ф. Философский энциклопедический словарь. –Москва, 1989. – с. 157
10. Усманова Е.Ф. Консолидация нормативных правовых актов как способ их совершенствования. Сборник Проблемы и перспективы развития современной юриспруденции / Сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции. № 2. г.Воронеж, 2015.
11. Байниязова Зульфия Сулеймановна. "Консолидация правотворчества и правоприменения" Мониторинг правоприменения, no. 2 (19), 2016, pp. 13-19.
12. Калинин, С.А. Проблемы использования консолидации при систематизации нормативных правовых актов / С.А. Калинин // Сучасні проблеми правової системи України : зб. матеріалів Міжнар. науково-практичної конференції, 29 жовт. – 1 лист. 2009 р., Алушта / Київ. ун-т права. – К., 2009. – С. 53–55.
13. Goncharova, Larisa N. et al. "Codification of legislation in various legal systems." *Revista de Investigaciones Universidad del Quindío* (2022): n. pag.
14. Тлембаева Жанна Урумбасаровна. "О проблемах кодификации некоторых отраслей и подотраслей законодательства Республики Казахстан" Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан, no. 1 (37), 2015, pp. 36-40.
15. Schepalov, Stanislav. "Codification of Norms on Judicial Consideration of Cases on Administrative Offenses: Experience of 16 Neighboring Countries". *Siberian Law Review* 21.4 (2024): 561-578. WEB. doi:10.19073/2658-7602-2024-21-4-561-578.
16. Мартыненко И. «Белорусский опыт систематизации законодательства об охране объектов культурного наследия посредством кодификации». *Право. Журнал Высшей школы экономики*, т. 17, вып. 1, март 2024 г., сс. 190-12, doi:10.17323/2072-8166.2024.1.190.212.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com